

Sahroda ruhi mangu yashaydigan avliyo



Keyingi yillarda ma'naviy-madaniy merosga yangicha yondashish va fikrlash taqozosi tufayli bizga noma'lum bo'lgan ko'pgina qadimiy yodgorliklari o'rganilmoqda, hayotga keng tadbiiq etilmoqda. Ammo, cho'l hududlari mahalliy aholisi muqaddas qadamjolari hozirgacha mukammal o'rganilmagan. Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limida joriy yilning 22-23-avgust kunlari "Jonajon O'zbekistonim mangu bo'l omon!" shiori ostida O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma sakkiz yilligiga bag'ishlab "Qanorboy ota - Qizilqum sahrosi aziz avliyolaridan biridir" mavzusidagi ilmiy-amaliy seminar xuddi ana shu mavzuga bag'ishlandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi NNTlarni va fuqorolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab - quvvatlash jamoat fondining "Qanorboy ota - qadamjosi qutlug' ziyoratgohga aylanib ketgan aziz-avliyolardan biridir" mavzusidagi loyihasi doirasida tashkil etilgan tadbirning birinchi kuni Navoiy davlat konchilik institutining majlislar zalida bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi FA Yosh olimlari, Navoiy davlat pedagogika instituti professor-o'qituvchilari, Navoiy viloyati NNTlari rahbarlari hamda Xitoy halq Respublikasi "OYaSA" kompaniyasi vakillari ishtirok etishdi.

Tadbirni ochgan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi raisi g-m. f. d. Abdurazak Mirzaev Xitoyning "OYaSA" kompaniyasi bilan tuzilishi kutilayotgan shartnoma haqida so'zlab berdi. Kompaniya direktori Renhu Vang o'z tabrik so'zida seminar ishtirokchilarini O'zbekiston-Xitoy aloqalarining yanada mustahkamlanayotgani bilan qutladi. O'zbekiston Respublikasi NNT Milliy assotsiatsiyasi Navoiy bo'limi raisi Klara Babakulova Uchquduq tumani "Qanorboy ota" xayriya jamoat fondining loyiha doirasida qilingan ishlariga to'xtalar ekan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 maydagi "Mamlakatimizdagi demokratik yangilanish jarayonida fuqorolik jamiyati institutlarining rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5430-sonli farmonida ko'rsatilgan nodavlat notijorat tashkilotlarni bilan hamkorlik qilish to'g'risidagi topshiriqlarning ijrosini ta'minlayotgan Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limiga minnatdorchilik bildirdi.

Tadbir ishtirokchilariga Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi katta ilmiy xodimi, f.f.n., dotsent Muhabbat Yuldosheva tomonidan o'zbek, qozoq, rus tillarida chop ettirilgan "Qanorboy ota" risolasi va bukletlar

sovg'a qilindi. O'zbekiston Respublikasi Badiiy akademiyasi a'zosi, Navoiylik rassom Naim Qodir chizgan Qanorboy otaning portreti Qanorboy ota qadamjosi imom-xatibi, Qanorboy otaning nabirasi Duysen Uderbaevga sovg'a qilindi. Ushbu portret bo'lajak "Qanorboy ota" muzeyining birinchi eksponati bo'ladi. Ilmiy-amaliy seminar dasturi asosida tadbirdan so'ng Uchquduq tumanidagi Qanorboy ota qadamjosiga ziyorat uyushtiriladi.

Uchquduq tumanida joylashgan Qanorboy ota qadamjosida 23 avgust o'tkazilgan tadbirda Uchquduq tumani hokimi o'rinbosarlari M.Shamuratov, A.Bazarov, Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi olimlari, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar Ittifoqi Uchquduq tumani yetakchilari, Nuroniylar va ziyoratchilar ishtirok etishdi.

- Navoiyga kelgunimga qadar bunday qadamjo borligini bilmas edim, - dedi FA Yosh olimlar kengashi raisi o'rinbosari f.f.n., dotsent G.Tillaeva. - Kecha ziyoratga kelib Qanorboy otani tarixiy shaxs sifatida yanada chuqurroq o'rganish va uning muqaddas qadamjosi binolarini termitga qarshi davo choralarini topishda Fanlar akademiyasi yosh olimlarini jalb etishni ko'nglimga tugib ketmoqdaman.

- Bunday bebaho merosiy qadriyatlarimizni xalqimiz, avvalo yoshlarimizning qalbi va ongiga singdirish lozim, - davom etdi Navoiy viloyati "Meros" nodavlat notijorat tashkiloti rahbari F.Qodirova.

Uchrashuvda, "Qanorboy ota" ziyoratgohiga kelgan mehmonlarga to'liq shart-sharoit yaratish maqsadida, Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi hamda "Qanorboy ota" xayriya jamoat fondi tomonidan mazkur ziyoratgohga quyosh batareyalari o'rnatilganligi hususida gapirildi. Biroq, bu borada hali ko'pgina hayrli ishlar qilinishi kerakligi ta'kidlandi. Va yana, Qizilqum xududida yashab o'tgan abadiy uyquga ketgan bo'lsada ruhlari mangu tirik bo'lgan boshqa atoqli shaxslarni o'rganishga diqqatni qaratilishi kerakligiga hususida alohida urg'u berildi.



